



NAJMIDDIN KUBRO TARIQATINING FALSAFIY ASOSLARINI O'RGANISH.

Yuldoshev Xolmirzo Davronovich

Navoiy davlat universiteti,

Boshlang'ich ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14350965>

Annotatsiya: Mazkur maqolada, insoniyat tarixida katta ahamiyat kasb etgan Najmiddin Kubro tariqati falsafiy - ma'naviy qadriyatlaridan biri ekan, xususan, Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarining o'ziga xosligi, umumiy hamda ma'naviy qadriyatlarining bir-biridan farqli jihatlari, mazmun va mohiyati, ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Insoniyat, ma'naviy qadriyatlar, tasavvuf falsafasi, tariqat, shariyat, ma'rifat, haqiqat, kabir, olami sag'ir, Naqshbandiya tariqati, Kubrobiya tariqati, Yassaviya tariqati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются одна из философских и духовных ценностей секты Наджмуддина Кубро, получившая большое значение в истории человечества, в частности, уникальность, общность и духовные ценности секты Кубровия, Яссавия, и секты Накшбандия, различные аспекты, содержание и ее сущность изучаются научно и философски.

Ключевые слова: Человечество, духовные ценности, философия суфизма, порядок, шариат, просветление, истина, Кабир, Алами Сагир, орден Накшбандия, орден Кубробия, орден Яссавия.

Abstract: In this article, one of the philosophical and spiritual values of the Najmuddin Kubro sect, which has gained great importance in the history of humanity, in particular, the uniqueness, common and spiritual values of the Kubroviya, Yassaviya, and Naqshbandiya sects, different aspects, content and its essence is studied scientifically and philosophically.

Key words: Humanity, spiritual values, Sufism philosophy, order, Shariah, enlightenment, truth, Kabir, Alami Saghir, Naqshbandiya order, Kubrobiya order, Yassaviya order.

Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul uns" asarida yozilishicha: - "Ahmad yoshligidan ilmga qiziqib, islom asoslari shariat ilmlarini juda tez o'zlashtirib o'zidagi qobiliyati asosida Xorazmning mana-man degan ulamolaridan o'zib ketadi va ilmiy bahslarda barchani olqishiga sazovar bo'ladi. Shu bois, u "Tammatul Kubaro", yani ulamolarning yetugi, ulug'vori va ilm balosi degan laqabni oladi. Buning yoniga "Najmiddin" - "dinning yulduzi" degan martabali



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

unvon qo‘shilib, Ahmad ibn Umar shundan keyin Najmiddin Kubro nomi bilan mashxur bo‘ladi” - deyilgan.

“Abuljannob” so‘zi esa Najmiddin Kubroning kuniyatidir. “Kuniyat” - arablarda hurmat yuzasidan beriladigan laqabdir. Jomiy hazratlari yozadilarki: – “Najmiddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolardan hadis ilmini o‘rganib qaytayotganida, yo‘lda bir kecha hazrati Payg‘ambarimizni tushida ko‘radi va ul zotga murojaat qilib, “menga kuniyat bag‘ishlang” deydi. Shunda hazrati Payg‘ambar Najmiddinga: - “Sening kuniyating Abuljannob – dunyodan ijtinob, parhez etuvchi bo‘ladi”, deb marhamat qiladilar. Shundan keyin Kubro “Jannob” laqabini olishga musharraf bo‘ladi. “Jannob – ijtinob qiluvchi, poklik parheziga amal etguvchi ma‘nosidadir”.

“Valiytarosh” laqabiga kelsak, bu so‘zning ma‘nosi valiylarni tarbiyalovchi demakdir. Zero, Najmiddin Kubroning nafasлари, nazarları shunchalik, zo‘r bo‘lganki, qalblarida ilhom jo‘sh urgan paytda kimga nazarları tushsa, u valiylik martabasiga erishar ekan. Najmiddin Kubro o‘n olti-o‘n etti yasharligida vatani Xorazmni tark etib, tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezadi. Uni ilmga chanqoq qalbi hech tinch qo‘ymas, qaerdaki biror nomdor olimni ovozasini eshitsa, darhol yo‘lga tushar, goh piyoda, goh otulov yoki tuyada haftalab, ba‘zan oylab yo‘l bosar, qidirgan kishisini topib, undan sidqidildan saboq olardi. Agar uning tahsildan ko‘ngli to‘lmasa, ustozidan ijozat olib, yana yo‘lga tushardi.

Najmiddin Kubro qalbida ruhiy ma‘naviy kamolatga, g‘ayb asrori, karomat va kashfu hol ilmi xisoblanmish tasavvuf ta‘limotiga ishtiyoq zo‘r edi. Shu bois u shariat ilmlarini o‘rganish barobarida tariqatdan ham xabardor bo‘lishga intilib, qator shayxlar, darveshlar suhbatida bo‘ladi, xonaqolarda xilvat o‘ltirib, riyozat bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Najmiddin Kubro Misrda Sharq falsafasi bilan shug‘ullanadi va uning sirlarini o‘rganadi. U hadis ilmi bilan qiziqib Nishopurda Abul Makkorim Lubon va Abu Jafar Samdloniy, Tabrizda Abu Mansur Xaft, Makkai Mukarramada Abu Muxammad Tabbex va Iskandariyada Abu Tohir Salafiy xizmatlariga etishib, ulardan hadis ilmlarini o‘rganadi.

Lekin yuqorida olgan bilimlar ilm talabi Najmiddinni qoniqtirmasdi, u yuqoridagi olimlardan olgan ilmlarini rivojlantirib yangi yo‘nalish tariqatdan saboq olish uchun dunyo kezdi. Najmiddin Kubroning tariqat yo‘lidagi pirlari shayx Ro‘zbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir, va Shayx Ismoil Qasriylardir. Ularning ustozlari Shayx Abulnajib Suhravardiy bo‘lib, Jomiyning yozishicha, zohiriy va botiniy ilmlarda barkamol kishi bo‘lgan, u ko‘p risola va kitoblar yozib



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

so'fiylik nisbatida Shayx Ahmad G'azzoliyga borib tutashadi. Suhravardiy faqirlik bilan futuvvatni (javonmardlik) birga olib tushintiradi. Faqirlik uning talqinida faqat qashshoqlik, bechoralik emas, "faqirlik –xudo oldida talabkorlik, ojizlik, ammo bandalari oldida adolat va saxovat posboni bo'lish, hammaga har erda yordam ko'rsatishdir" Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vassalamning:- "Beruvchi qo'l oluvchi qo'ldan afzaldir" degan muborak hadisi shariflariga muvofiq, "bag'ishlovchi qo'l – faqr eshigini ochuvchidir", degan fikrlarni bayon qilgan Suhravardiy boylikni qoralamaydi, balki zulmu sitamni va talonchilikni, haromxo'rlikni va xasislikni mazammamat etadi. Abulnajib Suhravardiy shogirdlari bo'lgan shayx Ro'zbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir, va Shayx Ismoil Qasriylarda qalb saxovati bilan birga murid tarbiyasida qattiqqo'l bo'lish, botiniy ko'z bilan muridning xayollarini, ruhiyatini uqib olish va unga ruhiy ta'sir o'tqazish qobiliyati yaxshi rivojlangan edi. Masalan:- Shayx Ammor Yosir solikning "noqisllarni takmil etish va muridlarni tarbiyalashda, ularning tushlari va fikrlarini ta'bir etishda, ikkilanishlarni bartaraf etishda shuhrat qozongan" bo'lsa, Shayx Ro'zbehon Misriy "aksar vaqt istig'roq maqomida bo'lib", vajd va ilhom ichida yurar, ilohiy ma'rifatdan zavqi toshib, bu holatni muridlariga yuqtirardi. Shayx Ismoil Qasriy bo'lsa, raqsu samo', imo – ishoralar yo'li bilan murid qalbini rom etib, o'zini poklash va shu orqali ilohiyotga muhabbatni singdirishda mashhur bo'lgan. Har uchala shayx ham tariqatni shariatdan tashqari deb tasavvur qilmaganlar. O'zlari sunniy mazhabining izchil tarafdorlari hisoblanganlar.

Hazrati Shayxi buzrukvorning Xorazm qatli omidagi qatli muborak turkiy yund yiliga muvofiq keladigan 618 hijriyda sodir bo'ldi. Hazrati Shayxi Valitarosh Shayx Najmiddin Kubro, Tangri uning ruhini muqaddas tutsin (vafotiga bitilgan) tarixda shunday deyiladi. Nazm (mazmuni): "Murshidi a'zam Shayx Najmiddin Kubro xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda qotil yaloviga yopishdi. Dini haq iqlimining shohi Ul piyr sarpanjasidan o'n zabardast yigit yalovni chiqarib ola olmadilar. Sayidlar shayxi sarpanjasida kofir yalovini ko'rib hayratda qolgan oqillar bu holni sharhladilar:- Yalov uchini Shayx tutib, tarix aytdiki, vafotim sanasi "Shohi shuhado" ("Shahidlar shohi")dir. Jami musulmonlar a'losiga Ollohi taolo rahmati yog'ilsin. Yana, deydilarki, Hazrati mavlono Jaloliddin Rumi, uning siri muqaddas qilinsin, Hazrati Shayxi buzriktor Valitarosh Shayx Najmiddin Kubro, Olloh uning sirini muqaddas tutsin, yalovni tutganiga ishorat qilganlar. Nazm (mazmuni): – "Biz shunday ulug'lardanmizki, gavhar tutamiz, oriqlik tutgan



ITALY

SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

pastkash emasmiz. Imon qadahidan bir qo'limiz bilan may ichsak, ikkinchi qo'limiz bilan kofir yalovidan tutamiz".

Gurganch taslim bo'lgach yondiriladi, xamma tirik jon qilichdan o'tkaziladi, boylıklar talanadi. Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, 100 ming nafar hunarmand, kosib, rassomlar asirga olinib Mo'g'ulistonga jo'natilgan. Mo'g'ullar vahshiylikning bor usullarini ishga solganlar, yo'qlarini esa o'ylab topganlar. Mo'g'ullar shaharning kulini ko'kka sovurish bilan bir qatorda Gurganjdand nom-nishon qoldirmaslik uchun Amudaryodagi to'g'onni buzib, suvni shaharga burib yuboradilar. Barcha ulkan tarixiy obidalar, ilm-ma'rifat manbalari suvga bostiriladi. Natijada uzoq muddat davomida barpo etilgan bu ulkan qadimiy madaniyat va ma'muriy markazda hayot to'xtaydi. Juvayniyning iborasi bilan aytganda, "Gurganch qashqir makoni bo'lib qoldi va bu erda boyo'g'li va burgut in qurdi".

Shunday qilib, Xorazmning buyuk farzandi o'z ona vatanini dushmanlardan himoya qila turib sharaflı o'lim topdi. Najmiddin Kubro 1221 yilda o'zi muallimlik qilgan xonaqohga dafn etiladi. Keyinchalik Oltin O'rdaga bo'ysinuvchi o'lka hukmdori Qutlug' Temur tomonidan XIV asrda Urganch (mo'g'ul tilida Gurganch so'zining talafuz etilishi) shahrida buyuk olim, tasavvuf ta'limotining asoschilaridan biri, vatanparvar Shayx Najmiddin Kubro nomiga maqbara tiklangan. Hozirgi vaqtda Najmiddin Kubroning qabri Turkmaniston Respublikasini Toshhovuz viloyati Ko'hna Urganch shahridadir.

Shayx Najmiddin Kubroning bunday vatanparvarligi asrlar osha tillarda doston bo'lib, afsonalarga aylanib bizgacha etib kelgan. Mustaqilligimiz sharofati tufayli 1995 yilda Respublikamizda buyuk alloma Najmiddin Kubroning 850 yilligi keng nishonlandi va bir qancha risolalari chop qilindi. Turon zamini qadim-qadimdan vatanparvar, millatparvar buyuk siymolar manzil-makoni bo'lgan. Bu yurtda yashab o'tgan ko'plab alloma, valiy zotlar dunyo tarixida o'chmas iz qoldirishgan. Shayx Najmiddin Kubro insoniyat tarixidagi eng e'tiborli siymolardan biridir, uning nomi Sharqda necha asrlardan buyon vatanparvarlik timsoli bo'lib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Komilov N. Najmiddin Kubro. - Toshkent: O'zbekiston, 1995.
3. Choriyev A. Inson falsafasi - Toshkent: O'zbekiston milliy faylasuflar jamiyati. 2007.
4. Ahmad Yassaviy Hikmatlar - Toshkent: Meros, 1991

